

FAROBİY SHARQ FALSAFASINING BUYUK NAMOYONDASI

Abduraximova Maftuna Maxammadjon qizi

Namangan davlat universiteti, Tarix yo'nalishi talabasi

Ilmiy rahbar: Madraximov Zoxid Sharofovich

Namangan davlat universiteti dotsenti, tarix fanlari nomzodi

Annotatsiya: Mazkur maqolada buyuk alloma, Sharq falsafasi va ilm-fanining yirik namoyandasi Abu Nasr Forobiyning hayoti, ilmiy faoliyati hamda falsafiy qarashlari yoritilgan. Unda Forobiyning ta'lim-tarbiyaga, inson kamoloti va fozil jamiyat g'oyasiga oid qarashlari tahlil qilinadi. Maqolada olimning asarlari, ilmiy merosining ahamiyati, uning Platon, Aristotel kabi yunon mutafakkirlari g'oyalari bilan bog'liqligi hamda Sharq va G'arb tafakkuriga ko'rsatgan ta'siri haqida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: Forobiy, falsafa, ta'lim-tarbiya, fozil jamiyat, komil inson, ilm va ma'naviyat, axloq, adolat, ma'rifat, Sharq mutafakkiri, ilmiy meros.

Аннотация: В данной статье освещены жизнь, научная деятельность и философские взгляды великого учёного, выдающегося представителя восточной философии и науки Абу Насра аль-Фараби. В ней анализируются его взгляды на образование и воспитание, совершенствование человека и идею добродетельного общества. В статье рассматриваются труды учёного, значение его научного наследия, связь его идей с философией таких греческих мыслителей, как Платон и Аристотель, а также влияние Фараби на развитие восточной и западной мысли.

Ключевые слова: Фараби, философия, образование и воспитание, добродетельное общество, совершенный человек, наука и духовность, нравственность, справедливость, просвещение, восточный мыслитель, научное наследие.

Annotation: This article highlights the life, scientific activity, and philosophical views of the great scholar and prominent representative of Eastern philosophy and science, Abu Nasr Al-Farabi. It analyzes Farabi's views on education and upbringing, human perfection, and the concept of a virtuous society. The article discusses the scholar's works, the significance of his scientific heritage, the connection of his ideas with the philosophies of Greek thinkers such as Plato and Aristotle, as well as his influence on the intellectual development of both the East and the West.

Keywords: Farabi, philosophy, education and upbringing, virtuous society, perfect person, science and spirituality, ethics, justice, enlightenment, Eastern thinker, scientific heritage.

IX – X asrlar musulmon Sharqi ilm-fan, falsafa va madaniyatining yuksak darajada rivojlangan davri bo'ldi. Aynan shu davrda yashab ijod etgan buyuk allomalar orasida Abu Nasr al-Farobiy o'zining chuqur tafakkuri, serqirra ilmiy merosi va insoniyat tafakkuri taraqqiyotiga qo'shgan ulkan hissasi bilan alohida o'rin tutadi. Farobiy Sharq va G'arb ilm-falsafa an'alarini uyg'unlashtirib, yangi falsafiy maktab yaratgan, ko'plab fanlarning rivojiga asos solgan ulug' mutafakkirdir. Farobiy "Aristoteldan keyingi ikkinchi muallim" sifatida tanilgan bo'lib, uning mantiq, metafizika, musiqa, siyosatshunoslik, axloq, tilshunoslik va tabiiy fanlarga oid asarlari o'rta asr ilm-fanining eng muhim manbalari qatoriga kiradi. U inson tafakkurining qudratini, ilmning jamiyat taraqqiyotidagi ahamiyatini chuqur tahlil qilgan, aql va axloq uyg'unligi orqali saodatga erishish g'oyasini ilgari surgan. Bugungi kunda ham Farobiy merosi o'z dolzarbligini yo'qotmagan. Allomaning fozil jamiyat, ilmiy tafakkur, ma'naviy poklanish haqidagi qarashlari zamonaviy ta'lim, madaniyat va falsafa sohalarida muhim manba bo'lib xizmat qilmoqda.

Abu Nasr al-Farobiy – yuqori lavozimdagi turkiy harbiy xizmatchi oilasida 873-yilda tug'ilgan, boshlang'ich ta'limni o'z ona yurtida olgan va so'ngra Toshkent, Buxoro, Samarqand kabi ilmiy markazlarda o'z bilimini oshirgan. Keyinroq esa ilm izlab Movarounnahrda bir necha ming milya masofa uzoqlikda joylashgan poytaxt Bag'dodga borgan. Farobiy Bag'dod shahrida yashagan vaqti xalifalar al-Mutazid (892 – 902), al-Muqtafiy (902 – 908) va al-Muqtadir (908 – 932)larning hukmronlik davriga to'g'ri keladi. U Bag'dodga kelgan dastlabki kezlarda u yerda istiqomat qilayotgan turkiy qavmdagi tanish-bilishlari, birodarlarining yordami bilan bir qancha madaniy-ma'rifiy joylar, turli ilm maskanlarini ziyorat qilgan va bu yerlarda amalga oshirilgan tadbirlarda faol ishtirok etgan [1. 201-bet]. Farobiyning ilmga bo'lgan cheksiz qiziqishi va irodasi Bag'dod shahriga kelganidan so'ng yanada mustahkamlangan. Bu davrda Bag'dod Islom olamining siyosiy, madaniy va ilmiy markazi bo'lib, u yerda dunyoning turli hududlaridan kelgan allomalar, mutafakkirlar, faylasuflar, tabiblar va tarjimonlar faoliyat yuritardi. Ayniqsa, xalifa al-Muqtadir davrida "Bayt ul-Hikma" ya'ni "Donishmandlik uyi" faoliyati nihoyatda yuksak darajada rivojlangan bo'lib, bu maskan Sharq va G'arb ilmlarining tutashgan markazi hisoblangan. Farobiy shu muhitda o'zining bilim va tajribasini yanada boyitgan, mashhur olimlar bilan ilmiy suhbatlar olib borgan, falsafa, mantiq, matematika, tibbiyot, musiqa, astronomiya va siyosat sohalaridagi yirik manbalarni o'rganagan. Bag'doddagi kutubxonalar, ilmiy majlislardagi bahs-munozaralar uning tafakkurini yanada charxlab, ilmiy qarashlarini mustahkamlagan. Farobiy o'z asarlarida ilmning inson hayotidagi o'rni, axloq, jamiyat, davlat boshqaruvi va adolat kabi masalalarni chuqur tahlil qila boshlagan.

Al-Forobiy 160 dan ortiq asarlar yozgan bo'lib, bizga ularning bir qismigina etib kelgan. Alloma yaratgan asarlarni ularning xarakteriga qarab ikki guruhga ajratish mumkin:

a) qadimgi yunon tabiatshunos olimlari va faylasuflari ilmiy merosini o'rganish, tarjima qilish va sharhlashga oid asarlar. Bulardan Aristotelning “Kategoriya”, “Ikkinchi analitika”, “Topika”, “Poetika”, “Ritorika”, “Sofistika” va shu kabi asarlariga yozilgan sharhlarni keltirish mumkin;

b) O'rta asr fanining tabiiy-ilmiy, ijtimoiy-siyosiy va falsafiy masalalariga oid risolalar. Bulardan: “Ixso-al-ulum”, Aristotel “Mantiq'ining talqinlari”, “Katta musiqa kitobi”, “Assiyosat al-madaniy”, “Mantiqqa kirish”, “Vakuum haqida”, “Fozil odamlar shahri” va shular kabilardir [2. 103-bet]. Al-Forobiyning asarlari nafaqat o'z davrining ilmiy va falsafiy muhitini yoritadi, balki insoniyat tafakkurining yuksak bosqichini ifodalaydi. U o'z asarlarida mantiq, falsafa, tabiiy fanlar, siyosat, musiqa, axloq, ruhshunoslik va jamiyatshunoslik kabi turli sohalarni chuqur tahlil qilib, ularning o'zaro bog'liqligini asoslab bergan. Har bir risolasi insonni fikrlashga, o'z aqlini to'g'ri ishlatishga, hayot va borliq mohiyatini anglashga undaydi. Forobiy o'zining ilmiy merosida inson tafakkurining cheksiz imkoniyatlarini ko'rsatib, ilmni faqatgina bilim yig'ish vositasi sifatida emas, balki insonni kamolga eltuvchi yo'l sifatida talqin etadi. U ilmni axloq va adolat bilan uyg'un holda tushuntiradi, ya'ni haqiqiy bilim insonni yuksaltirishi, uni komillikka olib borishi kerak, deb hisoblaydi. Shu bois, uning asarlarida nafaqat ilmiy tahlil, balki chuqur ma'naviy va axloqiy mazmun ham mujassamdir.

Forobiy yunon mutafakkirlari - Platon, Aristotel, Evklid, Ptolemey, Porfiriy va boshqalar asarlariga sharhlar yozgan. Forobiy o'rta asrlar sharoitida birinchi bo'lib jamiyatning kelib chiqishi, maqsad va vazifalari haqida izchil ta'limot yaratgan. Bu ta'limotda ijtimoiy hayotning ko'p masalalari davlatni boshqarish, ta'lim-tarbiya, axloq, ma'rifat, diniy e'tiqod, urush va yarash, mehnat va boshqalarni qamrab olgan. Bu borada uning “Fozil odamlar shahri” asari alohida ahamiyatga ega. Unda jamiyat (“inson jamoasi”)ning kelib chiqishi haqida shunday yozadi: “Har bir inson tabiatan shunday tuzilganki, u yashash va oliy darajadagi yetuklikka erishmoq uchun ko'p narsalarga muhtoj bo'ladi, u bir o'zi bunday narsalarni qo'lga kiritmaydi, ularga ega bo'lish uchun insonlar jamoasiga ehtiyoj tug'iladi... Bunday jamoa a'zolarining faoliyati bir butun holda ularning har biriga yashash va yetuklikka erishuv uchun zarur bo'lgan narsalarni yetkazib beradi. Shuning uchun inson shaxslari ko'paydilar va yerning aholi yashaydigan qismiga o'rtnashdilar, natijada inson jamoasi vujudga keldi” [3. 4-bet]. Shu tariqa Forobiy insonning jamiyatdan ajralgan holda yashay olmasligini, uning mavjudligi va kamoloti faqat ijtimoiy muhitda, o'zaro hamkorlik va yordam asosida ro'yobga chiqishini ta'kidlaydi. Uning fikricha, har bir insonning tabiiy ehtiyojlari boshqalar bilan birlashishni, umumiy manfaat yo'lida faoliyat yuritishni taqozo

etadi. Shuning uchun ham jamiyat - inson tabiati va aqlining mahsuli sifatida qaraladi. Forobiy bu qarashlari orqali inson va jamiyat o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni, ularning bir-biriga ta'sirini chuqur falsafiy tahlil qiladi. U jamiyatning barqarorligi, taraqqiyoti va adolatli boshqaruvi insonlarning o'zaro hurmat, mehnatsevarlik, axloqiy poklik va bilimga intilishi bilan belgilanadi, deb hisoblaydi. Shu bilan birga, u insonning eng oliy maqsadi - komillikka erishish ekanini ta'kidlab, bu yo'lga faqat ilm, axloq va adolat orqali yetishish mumkinligini ilgari suradi.

Forobiy yirik faylasuf bo'lish bilan birga, durustgina tabib, shoir ham bo'lgan. Tabobatga oid "Risalat fi a'zoi inson" (Inson a'zolari haqida risola) degan asar ham yozgan. She'riyatda esa zamonasining peshqadamlaridan biri bo'lgan. Rizoquli Hidayat o'zining "Majma al fusaho" degan asarida Forobiyning ikki ruboiysini keltiradi. Ular Forobiyning tabiat sirlarini bilishga qiziqqan, falsafaning asosiy masalalariga bosh qotirganini haqida yozilgan [4. 21-bet]. Bu ruboiylarda Forobiyning chuqur tafakkuri, hayot va borliq haqidagi falsafiy mushohadalari, inson aqli va bilimi haqidagi qarashlari o'z ifodasini topgan. Uning she'rlarida ilmga muhabbat, haqiqatni izlash, inson ruhiy olamining nozik jihatlari yuksak badiiy ifoda bilan tasvirlangan. Shu bois Forobiy nafaqat olim va faylasuf, balki so'z san'atini teran his etgan ma'rifatparvar shoir sifatida ham e'tirof etilgan.

Forobiy asarlari XII – XIII asrlardayoq lotin, qadimiy yahudiy, fors tillariga, keyinchalik boshqa tillarga tarjima qilinib, dunyoga keng tarqalgan. So'nggi asrlarda ko'chirilgan nusxalari ko'p mamlakatlarning kutubxona va muassasalarida saqlanadi. Toshkentda Beruniy nomidagi Sharqshunoslik institutida qadimgi Sharq faylasuflari asarlaridan jami 107 risolani, jumladan, Forobiyning 16 risolasini (arabcha) o'z ichiga olgan "Hakimlar risolalari to'plami" ("Majmuat rasoil al-hukamo", Qo'lyozmalar fondi, 2385-in.) bor. Bu noyob qo'lyozma Forobiy asarlarini o'rganishda muhim ahamiyatga ega. To'plamdagi Forobiy risolalari 1975-yilda qisman o'zbek tiliga tarjima qilinib nashr etilgan [5. 73-bet]. Bu tarjimalar va nashrlar orqali Forobiyning ilmiy merosi keng o'rganila boshlandi. Uning asarlaridagi falsafiy, mantiqiy va axloqiy qarashlar zamonaviy ilm-fan rivojiga ham turtki bo'ldi. Forobiyning asarlari orqali Sharq va G'arb tafakkuri o'rtasida mustahkam ilmiy ko'priq vujudga keldi. Shu tariqa, u o'z asarlari bilan nafaqat o'z davrining, balki keyingi asrlarning ham buyuk allomasi sifatida tarixda o'chmas iz qoldirdi.

Forobiy ta'limotiga ko'ra:

1. Ta'limda barcha fanlarning nazariy asoslari, tarbiyada ma'naviy-axloqiy qoidalar, odob me'yorlari o'rganilsa, kasb-hunarga yetarli malaka hosil qilinadi.
2. Ta'lim-tarbiyaga oid ta'limotning asosida inson kamolotini shakllantirish g'oyalari yotishi lozim.

3. Insonning kamolotga yetishishida ham aqliy, ham axloqiy tarbiyaning o'zaro aloqasi muhim muhim ahamiyat kasb etadi.

Forobiy insoniylik, adolat, yetuk jamoa, komil inson muammosini o'rta qo'ygan va ularni nazariy jihatdan asoslab bergan allomadir.

Forobiyning fozil jamoa haqidagi ta'limoti, uning komil inson haqidagi fikrlari bilan bilan uzviy bog'lanib ketadi. Fozil jamoada komil inson xislatlari vujudga keladi. Masalan, axloq odobli yetuk inson o'n ikki fazilatga ega bo'lmog'i lozim. Bu fazilatlar insonlarning o'zaro munosabatlari mustahkamlanib, yaxshilik tomon yo'lnalishida vujudga kela boradi. Forobiyning fozil jamoa va komil inson haqidagi ta'limotlari olim-mutafakkirlarga katta ta'sir ko'rsatadi [6. 17-bet]. Shu bois Forobiy ta'limotida insonning ma'naviy yetukligi va jamiyat taraqqiyoti o'zaro bog'liq holda talqin etiladi. Unga ko'ra, har bir inson o'z kamoloti sari intilar ekan, jamiyatning ham ma'rifatli va adolatli bo'lishiga hissa qo'shadi. Forobiy fikricha, bunday jamoada insonlar o'z bilim va fazilatlarini bilan bir-birini to'ldirib, umumiy ezgulik yo'lida faoliyat yuritadilar. Shunday muhitda insonning ichki dunyosi boyiydi, axloqiy poklik mustahkamlanadi va jamiyatda totuvlik hamda adolat qaror topadi.

Forobiy Sharq va jahon ilm-fan tarixida beqiyos o'rin egallagan ulug' mutafakkir, faylasuf va ma'rifatparvar allomadir. U o'z asarlari orqali insoniyat tafakkurining eng yuksak cho'qqilariga ko'tarilgan, ilm va ma'naviyatni uyg'un holda talqin etgan buyuk shaxs sifatida e'tirof etiladi. Forobiy inson hayoti, tafakkuri, axloqi va jamiyat tuzilishi haqida chuqur falsafiy qarashlar yaratgan bo'lib, uning ta'limoti hozirgi zamon uchun ham nihoyatda ahamiyatlidir.

Alloma ta'lim va tarbiyani inson kamolotining asosi deb bilgan. Unga ko'ra, haqiqiy baxt va yuksak fazilatga erishish yo'li ilm, aql va axloq orqali amalga oshadi. Forobiy nazarida inson o'zini anglagan sari jamiyatni ham anglaydi, inson komilligi esa jamiyat kamolotining garovidir. Shu bois u "fozil jamiyat" tushunchasini ilgari surib, bunday jamiyatda har bir shaxsning fazilati, odobi, adolati va ma'rifati muhim o'rin tutishini ta'kidlagan. Forobiy qarashlarida shaxs va jamiyat, ilm va axloq, aql va e'tiqod bir butun tizim sifatida namoyon bo'ladi. Uning fikricha, bilim - insonni zulmatdan nurga olib chiqadigan kuch, axloq esa uni to'g'ri yo'ldan adashmaslikka undovchi mezondir. Shunday qilib, Forobiy insonni faqat ilmli emas, balki ma'naviy jihatdan yetuk, adolatli, pokiza va ezgulikka intiluvchi mavjudot sifatida tasvirlaydi. Forobiyning bu g'oyalari bugungi kunda ham inson tarbiyasi, ma'naviy barkamollik, ta'lim tizimi va davlat boshqaruvi sohalarida o'z dolzarbligini yo'qotmagan. Uning asarlarida ilgari surilgan tamoyillar har bir davr uchun ibrat va yo'l-yo'riq bo'lib xizmat qiladi. Shuning uchun ham Forobiy merosi - bu faqat o'tmishning ilmiy yutug'i emas, balki hozirgi va kelajak avlodlar uchun ma'naviy nur, insoniy kamolotga eltuvchi bitmas manbadir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Абдуҳалимов Б. А. Байт ал-ҳикма ва Марказий Осиё алломалари. –Т.: Ўзбекистон, 2010. – 264 б.
2. Namozov Bobir. Sharq allomalarining ilmiy-ma'naviy merosi. – Buxoro: “Durdona”, 2022. – 264 bet.
3. Abu Nasr Forobiy. Fozil odamlar shahri. Nodir va dono fikrlar. – T.: “O'zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2004. – 160 b.
4. Ирисов А. Ўрта Осиёлик қирқ олим. – Т.: Ўзбекистон ССР Фанлар Академияси нашриёти, 1961. – 102 бет.
5. Jumayeva N. A. Sharq allomalarining ilmiy merosi. – Buxoro: “Sadriddin Salim Buxoriy” Durdona nashriyoti, 2020. – 228 b.
6. Niyozov Gulmurod. Sharq allomalari va ma'rifatparvar adiblarining barkamol avlod tarbiyasiga oid ma'navi ma'naviy-axloqiy qarashlari. T.: O'zbekiston NMIU, 2010. – 88 b.